

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

O‘ZBEK VA QIRG‘IZ QAHRAMONLIK EPOSINING QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLILI (“ALPOMISH” VA “MANAS” DOSTONLARI MISOLIDA)

Salimaxon MIRZAYEVA

f.f.d. professor

Andijon davlat universiteti

Mahbubaxon TEMIROVA

f.f.b.f.d.(PhD), dosent

Andijon davlat pedagogika instituti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15290612>

Annotasiya: Mazkur maqolada o‘zbek va qirg‘iz xalqarining qahramonlik eposlari hisoblangan “Alpomish” va “Manas” dostonlarining qiyosiy-tipologik tahlili amalga oshirilgan. Ikki dostonidagi o‘xshash va farqli jihatlar, ikki xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos xususiyatlari yuzasidan tadqiqot olib borilgan.

Kalit so‘zlar: qahramonlik, epos, tipologiya, tahlil, mifologiya, epik formula, xronotop.

Аннотация: В данной статье проводится сравнительно-типологический анализ эпосов «Алпомиш» и «Манас», которые считаются героическим эпосом узбекского и кыргызского народов. Исследованы сходства и различия двух былин, специфика двух народных устных произведений.

Ключевые слова: героизм, эпос, типология, анализ, мифология, этическая формула, хронотоп.

Abstract: This article presents a comparative typological analysis of the epics “Alpomish” and “Manas”, which are considered heroic epics of the Uzbek and Kyrgyz peoples. The study examines the similarities and differences between the two epics, as well as the specific features of the oral literature of the two peoples.

Key words: heroism, epic, typology, analysis, mythology, epic formula, chronotope.

Doston – epik ijodiyotning eng qadimiy turi. O‘zbek va qirg‘iz xalqlari dostonlarga boy xalqlardan hisoblanadi.

O‘zbek xalq dostoni “Alpomish” haqida o‘zbek folklorshunosligida talaygina ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Qirg‘iz xalqining “Manas” dostoni ham juda ko‘plab olimlarni qiziqtirib kelgan va dostonga bag‘ishlangan turli mavzularda tadqiqotlar mavjud. Biroq o‘zbek va qirg‘iz xalqarining qahramonlik eposlari qiyosiy-tipologik tahlili, poetikasi yuzasidan birorta maxsus tadqiqot olib borilmadi.

O‘zbek xalq dostonlari quyidagidek tasniflashda xilma-xilliklar mavjud bo‘lib ulardan B.Sarimsoqov o‘zbek an‘naviy xalq dostonlarini tarixiylik nuqtai nazardan quyidagicha turlarga ajratadi: 1. Qahramonlik dostoni. 2. Romanik dostonlar. 3.

“TURKIY XALQLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Tarixiy dostonlar [Sarimsoqov B.8:14.] Yuqorida ta'kidlab o'tkanimizdek xalq dostonlari tasnifi bo'yicha ko'plab olimlar turli fikrlarini bildirishgan, lekin biz ko'proq B. Sarimsoqovning tasnifiga ko'ra, xalq dostonlarining boshqa tiplari yo'q va bo'lishi ham mumkin emas.[Mirzaeva S. 5:0]

Qirg'iz xalq dostonlari tasnifi: 1.Qahramonlik dostonlari: a) Ulug' eposlar; b) Kenja eposlar. 2. Afsonaviy ko'hna qahramonlik eposlari. 3. Ijtimoiy-hayotiy eposlar. [2:471-474]

Dostonlar uzoq yillar, asrlar davomida xalq tomonidan yaratilib, turli davrlarda, turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda kuylanib kelingan, o'sha kuy va ijro jarayonida dostonlar turli davrlar, sharoitlar qatlamini o'z ichida ifoda etishi ham mumkin. Shuning uchun dostonlar xalqlarimizning uzoq o'tmishidan darak beruvchi nodir asarlar hisoblanadi.

Nafaqat o'zbek va qirg'iz xalqlarining balki, turkiy xalqlarning madaniy va ma'naviy merosining o'ta muhim qismlaridan hisoblangan “Alpomish” va “Manas” dostonlari xalqlarimizning tarixi, urf-odatlarini, qadriyatlarini va hayotiy qarashlarini o'zida aks ettiradi. Bu dostonlardagi qahramonlar obrazlari, syujet tuzilishi va g'oyaviy yo'nalishlari o'z xususiyatlariga ega. Quyida ushbu ikki dostonning o'xshash va farqli jihatlari qiyosiy-tipologik tahlil qilindi.

Har ikki dostonda asosiy epik qahramon – Alpomish botir va Manas botir.

“Alpomish” dostonida Alpomishning botirligi, o'ziga bo'lgan ishonchi va yurtiga, sevgilisiga bo'lgan sadoqat timsolidir. Uning jasorati oilasini, qabilasini va yurtini himoya qilishda namoyon bo'ladi.

“Manas” dostonida Manas butun bir millatning himoyachisi sifatida tasvirlangan. Uning qahramonligi nafaqat shaxsiy jasoratda, balki o'z yurtini dushmanlardan himoya qilishdagi strategik aql-zakovatida ham namoyon bo'ladi.

“Alpomish” va “Manas” dostonlarining syujetidagi epik voqealarni qiyoslash voqealar rivojining ulug'vorlikka va drammatizmga boyligini ko'rsatadi.

“Alpomish” dostonining boshlanishi Fozil Yo'ldosh o'g'li variantida nasr shaklida shunday berilgan: “Burungi o'tgan zamonda, o'n olti urug' Qo'ng'iro't elida Dobonbiy degan o'tdi. Dobonbiydan Alpinbiy degan o'g'il farzand paydo bo'ldi. Alpinbiydan tag'i ikki o'g'il paydo bo'ldi: kattakonining otini Boybo'ri qo'ydi, kichkinasining otini Boysari qo'ydi.” [“Alpomish” 1:14]

“Manas” dostonining Sayaqboy Karaliev variantida esa doston nazm shaklida boshlangan bo'lib, unda Manas botirning ota-bobolari xon bo'lganligi, ularning

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

ismlari Bo‘yo‘n xon, Chayan xon, Ogoy xon, Balakan, Karakan, Karakanning sakkiz o‘g‘li borligi, eng dovyuragi Jaqip ekanligi aytiladi.” [“Manas”3:18]

Har ikki dostonlarda qahramonlarning shajarasi keltirilishi o‘zbek va qirg‘iz xalqlarining o‘z yetti avlodini bilishlari shartligi va “etti avlodini bilmagan qul” degan naql borligini anglatadi. Shu joyda “Alpomish” dostonida keltirilgan shajara haqida fol’klorshunos olim Sh.Turdimov tomonidan juda qiziq ma’lumotlar berganligini aytib o‘tishimiz lozim. [Turdimov Sh. 9:17]

“Alpomish” va “Manas” dostonlarida ota-onaning farzandsizligi o‘ziga xos tasvirlanadi. “Alpomish” dostonida to‘yda tahqirlangan, izza qilingan Boybo‘ri bilan Boysari Shohimardon pining ravzasiga borib, qirq kun tunab, farzand tilab, ilohiy homiy pir yordamida farzandli bo‘lishlari, ya’ni Boybo‘ri bir o‘g‘il, bir qiz, Boysari bir qizli bo‘lishi aytiladi.

“Manas” dostonida Jaqip saltanati ortib, hisobsiz boyib, yoshi ellikka kelsa-da ikki ayolidan bir ham farzandi yo‘qligi, farzandlilarni ko‘rganda orlanishi, Xudoga zorlanib, bo‘yniga hurjun ortib, mozorlarga sig‘inib, mol-mulkiga egador bo‘lgan, ko‘zi o‘tsa, otam deb yo‘qlar farzand tilashi aytiladi Ovuliga yaqin yerdan unga Akimbek deganning Mengdiboy ismli o‘g‘li uchrab, Jaqipdan xafaligining sababini so‘raydi. Unga ham javob qilmay, Jaqip qattiq yig‘lagan ko‘yi otini ham bog‘lamay uyiga kiradi. Nima bo‘ldi degan boybichchasi Chiyirdiga xotini tug‘mas, o‘zi quvbosh ekanligidan orlanganini aytib, noroziligini bildirib, to‘riga yotib oladi. Izza bo‘lgan Chiyirdi ham yuk oldiga bukchayib yotib uhlab qoldi. Shu kuni Jaqip, Chiyirdi va Jaqipning ikkinchi ayoli Bakdoolot hosiyatli tush ko‘rishadi. Jaqipning bog‘lanmay qolgan otini quvib ketgan Mengdiboy uyiga qaytib kelmaydi. Mengdiboyning onasi uhlab yotgan Jaqipni ko‘rib Chiyirdiga: eringni uyg‘ot, otini quvib ketgan o‘g‘lim haligacha yo‘q, tun o‘rtasi bo‘ldi, o‘g‘lim o‘lsa, dunyo-molingni jimjilog‘iga ham olmayman deya zahrini sochadi. Chiyirdining, Bakdoolotning, o‘zining tushi aytiladi. Yaxshi tush ko‘rishgani uchun qirq-ellik mol so‘yib to‘y beraylik deydi Chiyirdi. Bakdoolot: “qirq emas, sakson so‘yib, el chaqirib, to‘y beraylik, yoshing ellikka chiqqanligini bilmaysanmi, egasiz molni qizg‘onganing nimasi”, - deydi. Hech narsaning tayini yo‘q xotinlarining shuncha mol so‘yib to‘y beraylik deganiga achchig‘i kelib, uydan chiqqan Jaqipni oldidan Mengdiboyning onasi Kanimjan chiqib: otingni quvib ketgan ko‘yi yo‘qolgan bolanni topib ber, haligacha izlamay, bolaning qadrini bilmagan quvboshliging bilindi deya qattiq so‘zlar aytadi. Jaqip buniki ham to‘g‘ri deya, Mengdiboyni izlab ketadi. Bolani izlab borgan Jaqip Ak-Otok degan yerda ustiga ok yo‘lbarsning terisi

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

yopilib turgan o‘z otini ko‘radi. Bolani yo‘lbars yebdi deb cho‘chigan Jaqipga o‘rmondan Mendiboy chiqib kelib salom beradi. Tuchunoq otni orqasidan izlab kelib, qirq bolaga uchraganini, ular bilan tuni bo‘yi o‘ynaganligini, u bolalar biz Jaqipning bolalarimiz deyishganini, bolalarning biri yo‘lbarsni o‘ldirib so‘yib, terisini Tuchunoqqa yopib qo‘yganligini aytadi. Bolaning so‘zlarini eshitib, hamma hayron qoladi. Kechadan beri bo‘layotgan belgilar bejiz emasligini o‘ylab, Jaqip to‘y beradi. Chiyirdi homilador bo‘ladi. Yo‘lbarsni yuragiga boshqorong‘i bo‘lgan Chiyirdiga topib bera olmay ko‘p ovora bo‘lishadi va Kochku ismli qalmoq otgan yo‘lbarsni 90 tuya bug‘doyga sotib kelishadi. [“Manas”3:7-9.]

Yuqoridagidek, dostonlar syujetidagi farzandsizlik motivi zorlanish, tilanish orqali, pir va chiltonlar yordamida farzandli bo‘lishlari bir xil bo‘lganiga qaramay, har bir dostonda o‘ziga xos voqealar bilan badiiy talqin qilingan.

“Alpomish” va “Manas” dostonlarida farzandlari dunyoga kelishlari aniq bo‘lgan kuni otalarining ovga, molidan xabar olgani adirga ketib qolishlari bir xil holatdir.

Boybichchalarning oy-kuni yaqin yetdi, biylar ikkovi aytdi: «Bizlar ham bir shohlik shavkatini qilsak, ovga chiqib ketsak, farzandlar yer yuziga tushsa, suyunchi, deb bir nechalar oldimizga yo‘lga chiqib, bizlardai tilla-tanga in‘om olsa», - deb o‘ylarni o‘ylab, biylar ovga jo‘nab ketdi. Farzandlari dunyoga kelib, biylar ovdan qaytib, bir nechalariga suyunchi ulashishadi. O‘n olti urug‘ Qo‘ng‘irot eliga qirq kechayu, qirq kunduz to‘y berishadi.

“Manas” dostonida bu holat o‘ziga xos tasvirlanadi. Farzandi dunyoga kelishi aniq bo‘lgan kunini eshitgan Jaqip: “Bola uchun qattiq zorlangandim, erkak deya birov yugursa yuragim yorilib ketar, undan ko‘ra yiqilsam-da, tolsam-da elga mazah bo‘lmagudek hech kim yo‘q yerga borib xabar eshitay deb, suyunchiga boruvchilarga otlarni bog‘latib, g‘amlab qo‘ydirib, qiz tug‘ilsa indamay jim bo‘linglar, erkak bo‘lsa suyunchilab boringlar”– deb otlanib ketadi. Adirni ko‘zlay moliga yo‘l olgan Jaqipning oldidan Yo‘rg‘a bo‘z uyuri uchraydi. Payqab qarasa, yilqilar orasida qorayolli sarg‘ish-qo‘ng‘ir rangli biya yotib-turib, to‘lg‘og‘i tutib yotibdi. “Biya hozir tug‘adi ekan, agar erkak bo‘lsa bolamga enchi qilib beraman”- deydi.

Bola yerga tushib, erkak ekanligi ko‘rindi. Onasining ichidan ikki qo‘liga qon changallab chiqibdi. Erkak tuqqanini eshitib quvonganidan Chiyirdi hushini yo‘qotdi. Uni ko‘rgan ayollar qora bosdi deyishib, cho‘chib ketishdi. Yo‘q, qora bosmabdi, birozdan keyin hushiga kelib, boshini ko‘tardi. Bakdoolot bolani yerdan olaman desa salmog‘i o‘n beshdagi boladay ekan. Og‘ziga tatitib ko‘rishganda uch qorin saryog‘ni

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

yeb qo‘ydi. Onasi emizganda bir so‘rganda sut, ikkinchisida suv, uchinchisida qon chiqadi. Chiyirdi boybichchaning joni chiqib ketayozdi. G‘amlab qo‘yilgan otlarni minishib erkaklar suyunchi olish uchun Jaqipni izlab ketishdi. “Sen ham borsang bo‘lmaydimi degan ayoli Sulaykaning so‘ziga chidamay, Ko‘kcholak bilan otlangan Akbalt ovul yaqinidagi adirda qora suvning bo‘yida qorayolli sarg‘ich-qo‘ng‘ir rangli biya tuqqan oq erkak qulunni qarab turgan Jaqipga: Boybichchang erkak tug‘di. Bolangning baqirgan ovozi toy chopgan joydan eshitildi, ovozini eshitganimda siridan yuragim bo‘g‘zimga tiqildi. Bolang ikki qo‘liga qon changallab tushibdi” deya suyunchilaydi. Jaqip Akbaltaga g‘amlab qo‘ygan bir xalta oltinni suyunchiga berib, ko‘p mol va‘da qiladi.

O‘z o‘rnida fol'klorshunos olim Jabbor Eshonqulov: “Alpomish” dostonida farzandning tug‘ilishi ilohiy xususiyat kashf etadi. Ilohiy tug‘ilish esa fol'klorda yetakchi motivlardan biri bo‘lib, u bir necha bosqichlardan iborat. Birinchisi, otananing farzandsizlik holati. Bu bir tomondan ona urug‘chilik bilan bog‘liq tasavvurlarning marosim va dostonlarimiz qatlamida saqlanib qolganligidan dalolat bersa, ikkinchi tomondan dostonda ramziy ma‘no kashf etib, parokanda elni birlashtiradigan, hokimiyatni mustahkamlaydigan yangi avlod, yangi alpning tug‘ilishini anglatadi” deya to‘g‘ri ta‘kidlagan.[Eshonqulov J. 10:42.]

“Alpomish” va “Manas” dostonlarida farzandlarga ism qo‘yish marosimi o‘zgacha aks ettirilgan.

“Alpomish” dostonida qirq kechayu qirq kunduz to‘y bo‘lib, to‘y tarqaydigan kuni uzoqdan bir qalandar ko‘rinib kelayotgan bo‘ladi. Biylarning esiga tushdi. Ravzada: “Qalandar bo‘lib borib, o‘zim otini qo‘yib kelaman” degan ovozni eshitishgan edi. Biylar o‘rnilaridan turib, oldiga peshvoz chiqib, salom berib, ziyorat qilib, majlisxonaga boshlab olib kelishadi. Farzandlarning uchovini ham olib kelib, Shohimardon pirining etagiga solishadi. Shohimardon piri Boybo‘rining o‘g‘lining otini Hakimbek qo‘ydi, o‘ng yelkasiga besh qo‘lini uradi. Besh qo‘lining o‘rni dog‘ bo‘lib, besh panjaning o‘rni bilinib qoladi. Qizining ismini Qaldirg‘ochoyim qo‘yadi. Boysarining qizining otini oy Barchin qo‘yadi. Shohimardon piri Hakimbek bilan oy Barchinni atashtirib, beshikkirti qilib: «Bu ikkovi er-xotin bo‘lsin, Hakimbek bilan hech bir kishi barobar bo‘lolmasin, omin ollohu akbar», — deb fotihani betiga tortadi. Shundan so‘ng Shohimardon piri jo‘nab ketadi, odamlarni ko‘zidan g‘oyib bo‘ladi.

“Manas” dostonining Sayaqboy Qaralaev variantida syujetning eng asosiy detali bo‘lgan ism qo‘yish aytilmagan bo‘lsa-da bolaning ismi Manas bo‘lishi, qalmoqlarga

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Cho‘ngjindi deya eshittirishi bir necha marotaba Jaqipning ko‘rgan tushida, suyunchi olgani borgan Akbaltaning so‘zida ham eslatiladi. Farzandi tug‘iladigan kuni boy Jaqip adirdagi mollarini qarab yurib, bir joyda uhlab ham qoladi. Tushiga oqsoqol devona kirib: “Xizr alayxis salom men bo‘laman, kelganimning sababi Yaratgan senga bir bola berdi. Bugun erkak o‘g‘illi bo‘lasan. Ismini Manas qo‘y, Jaqip”,- deb Manasning botir bo‘lishi, uning qo‘llagani – Ho‘jasan, yo‘lagani – qirq chilton ekanligini aytadi. Jangga minadigan oti bugun tug‘ilgan qulun tulpor bo‘lishini aytadi. Shularni aytib ko‘zdan g‘oyib bo‘ladi.

Aqbalta so‘zi bilan Jaqipning bolasi Manas tug‘ilganda bola emas, bir yalmog‘iz ekan deb cho‘chib ketib to‘qqiz kampir o‘lgani, bolaning orqasida qora ko‘k yoli ko‘ringani, Manas yerga tushganda nur sochilgani, qora qoplon yon tarafida yugurgani ko‘rinib, qayda ekani bilinmay g‘oyib bo‘lganligi, ko‘sov quyruqli ko‘k arslon o‘ng tomonida chopganini ko‘rganda xotinlar chirqirab qochishgani, o‘ng egnidan bir hidlab, so‘l egnidan bir hidlab burgut bilan arslon birga yotganini, bir qarasa boladay, bir qarasa sur yo‘lbars, omon yurib ulg‘aysa zo‘r botir bo‘lishligi aytiladi. [3:65-74]

“Alpomish” va “Manas” dostonlarida homiy pir va eranlarning farzandlarga ism qo‘yishi, ularning kelajagini, amalga oshiruvchi vazifalarini belgilab berganligi o‘xshash bo‘lsa-da, ulardagi ushbu syujet tarkibi o‘ziga xos aks ettirilganligini ko‘ramiz.

Yuqorida “Alpomish” va “Manas” dostonlarining syujetidagi ayrim boshlama voqealariga to‘htaldik xolos. “Alpomish” va “Manas” dostonlarini qiyosiy-tipologik jihatdan tadqiq etish, ulardagi tipologik o‘xshashliklar va farqli jihatlarni oydinlashtirish imkonini beradi.

Xalq eposida saqlangan xotiraning mohiyatini chuqur va to‘g‘ri anglashda barqaror epik formulalar mazmunini, ularning an’anaviylik darajasini, har bir formulaning doston matnida ado etgan vazifalarini aniqlab olish katta ahamiyatga ega.

Xalq eposida barqaror formulalarning tutgan o‘rni va badiiy vazifalari, ayrim formulalarda ifodalangan mazmunning tarixiy asoslari haqida o‘zbek eposhunosligida bir qancha kuzatishlar olib borilgan. Ular stilistik formulalarning doston syujetidagi muayyan vaziyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan va syujet bilan bog‘liq bo‘lmagan turlari haqida e’tiborga molik fikrlarni bildirganlar. Birinchi turga mansub barqaror formulalar syujet voqealari rivojiga, muayyan vaziyatlar yechimiga ta’sir ko‘rsatishini, ikkinchi turga mansub barqaror formulalar baxshi yoki personaj nutqida

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

qo‘llanilib, ifodalanadigan fikrga ritm, vazn va qofiya jihatidan qolip vazifasini ado etishini o‘zbek eposshunosligida ilk bor V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifovlar ko‘rsatan edilar. Ayniqsa ularning ko‘pgina barqaror formulalarning aforistik ma‘no kasb etishlari va ular doston matniga kuchli mazmundorlik, salmoqli ma‘no bag‘ishlashlari haqidagi fikrlari hozirgacha o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. [Mirzaeva S.5:90]

Barqaror stilistik formulalar haqida “Alpomish” dostonining o‘zbek variantlarini qiyosiy o‘rganish munosabati bilan prof. T.Mirzaev alohida to‘xtalib o‘tgan. U “Alpomish” dostoni va uning variantlarida turlicha vaziyatlarda, turlicha shakllarda qo‘llanilgan o‘n uchta formula haqida to‘xtalib o‘tadi. Biz uchun qimmatli tomoni shundaki, T.Mirzaev har bir barqaror formuladagi ayrim so‘zlarning, ko‘proq, fe‘l shakllarining o‘zgartirilishi orqali turli vaziyatlarda xilma-xil vazifalarni ado etishga moslab qo‘llash mumkinligi haqida diqqatga sazovor fikrlar bildiradi.[Mirzaev T.7:141-145]

Xulosa qilib aytganda, “Alpomish” va “Manas” dostonlari turkiy xalqlarning umumiy madaniy asoslarini ifoda etuvchi noyob asarlardir. Ular orqali xalqning tarixiy xotirasi, milliy g‘ururi va ma‘naviy qadriyatlari asrlar davomida saqlanib kelmoqda. Ushbu dostonlarning qiyosiy tahlili ularning o‘xshashliklari va farqlarini ko‘rsatish bilan birga, har bir dostonning o‘z hududiga xos madaniy xususiyatlarini ham anglashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. ”Алпомиш” достони. Фозил Йўлдош варианты. Тошкент: “Шарк”, 1998. 397 б.
2. Кыргыз адабиятынын тарыхы. 1-том. Бишкек, 2002. 684 б.
3. Манас. Саякбай Каралаев варианты. Бишкек: “Турар”, 2010.1008б.
4. Манас энциклопедияси. 2-том. Бишкек, 1995. 432 б.
5. Мирзаева С.Р. “Романик дostonлари поетикаси”.Т.:Фан,2004.10-б.
6. Мирзаев Т., Эшонкулов Ж., Селами Фидокор. Алпомиш дostonининг изоҳли луғати. Тошкент, 2007. 164 б.
7. Мирзаев Т. «Алпомиш» дostonининг ўзбек вариантлари. –Б.141-145.
8. Саримсоқов Б. Халқ дostonлари таснифи ва оралиқ шакллар //Ўзбек тили ва адабиёти. 1981. №3. Б.37-47.
9. Турдимов Ш. Этнос ва эпос. Тошкент: “Ўзбекистон”, 2012. 96 б.
10. Эшонкулов Ж. Миф ва бадий тафаккур. Тошкент, 2019.
11. Ўзбек халқ ижоди бўйича тадқиқотлар. 4-китоб. – Т.: Фан, 1976. – Б.-90.